XALQ DEPUTATLARI MIRZO ULUG’BEK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-5-038-14-200-K/24 Mirzo Ulug’bek tumani

Mirzo Ulug‘bek tumanida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan ayrim soliqlarga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga muljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 1014-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini kiritish va qo‘llash yuzasidan, xalq deputatlari MirzoUlug‘bek tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga muljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 1014-sonli Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmonining 1-bandi 2-xat boshiga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun daha, massiv va mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish va qo‘llash tartibi joriy etilganligi, 2025-yil O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining

ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezidentining Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Soliq kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni hisobga olib, tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar yuzasidan kiritilgan taklifi ma’qullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-moddasi va Soliq kodeksiga asosan “2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha yer solig‘i stavkasiga,suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasi “regulation.gov.uz” elektron tizimi orqali 105040-son bilan 15 kun muddatga jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilganligi inobatga olinsin.

4. Xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashiga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha mahallalar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

5. Mirzo Ulug‘bek tumani soliq inspeksiyasi (D.Usmanov)ga:

ushbu qarorni sifatli darajada ijrosini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Mirzo Ulug‘bek tumani soliq inspeksiyasi tomonidan budjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, Soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatilishi uchun xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashiga doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

7. Mirzo Ulug‘bek tumani hokimligi matbuot xizmati va tuman soliq inspeksiyasi, mazkur qarordan kelib chiqqan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari bo‘yicha belgilangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mirzo Ulug‘bek tumani Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islodotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (M.Yuldasheva) va Mirzo Ulug‘bek tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Saidaliyev) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi  YULDASHEVA MUYASSAR TAIROVNA

Xalq deputatlari Mirzo Ulug’bek tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-038-14-200-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Zona	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 gektar uchun		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 kv.m uchun	
			Koeffit-siyent	Yer solig‘i stavkasi (mln so‘mda)	Koeffit-siyent	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1	Avayxon	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
2	Azamat	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
3	Alisher Navoiy	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
	Alisher Navoiy	4	1,3	158,6	1.2	1 137,6
4	Alpomish	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
	Alpomish	3	1.3	239,2	1.2	1447,2
5	Al-Farobiy	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
6	Asaka	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
7	Ahillik	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
8	Axmad Yugnakiy	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
9	Bahor	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
10	Beshkapa	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
11	Bog‘imaydon	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
12	Bo‘z	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
13	Buyuk Ipak Yo‘li	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
14	Gulsanam	4	1,3	158.6	1,2	1137,6
15	Darxon	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
15	Kamolot	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
17	Katta Qorasuv	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6

18	Katta Oltintepa	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
	Katta Oltintepa	3	1,5	239,2	1,3	1447,2
19	Katta Yalong‘och Ota	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
20	Lashkarbegi	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
21	Minglola	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
22	Mirzakalon Ismoiliy	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
	Mirzakalon Ismoiliy	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
23	Munavvarqori	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
24	Mustaqillik	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
25	Navnihol	2	1,5	357,0	1,3	1912,3
	Navnihol	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
26	Nodirabegim	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
	Nodirabegim	3	1,5	276,0	1,3	1 567,8
27	Nur	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
28	Oqibat	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
29	Oqqo‘rg‘on	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
30	Oliy Himmat	2	1,5	357,0	1,3	1912,3
	Oliy Himmat	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
31	Olimlar	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
32	Olmachi	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
33	Oltintepa	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
	Oltintepa	3	1,5	276,0	1,3	1 567,8
34	Podshobog‘	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
35	Sayram	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
36	Sultoniya	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
37	Traktrsozlar	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
38	Turon	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
39	Uyg‘onish	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
40	Ulug‘bek	5	1,3	80,6	1,2	813,6

41	Feruza	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
42	Xabib Abdullayev	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
43	Hamid Olimjon	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
44	Humoyun	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
45	Chimyon	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
46	Shalola	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
47	Shahriobod	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
48	Shaxrisabz	1	1,5	447,0	1,3	2 255,5
49	Shukur Burxonov	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
50	Sho‘rtepa	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
51	Elobod	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
52	Yuzrabot	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
53	Yalong‘och	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
	Yalong‘och	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
54	Yangi Avayxon	3	1,3	239,2	1,2	1 447,2
55	Yangi Kamolot	4	1,3	158,6	1,2	1 137,6
56	Yangi Olmachi	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
57	Oydin	2	1,5	357,0	1,3	1 912,3
	Oydin	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
58	Temuriylar (Amir Temur)	3	1,3	239,2	1,2	1447,2
59	Ko‘hna mevazor (Mevazor)	3	1,3	239,2	1,2	1447,2
60	Sarbon (Gulbog‘)	3	1,3	239,2	1,2	1447,2
61	Gulzorobod (Gulzor-1)	3	1,3	239,2	1,2	1447,2
62	Geologlar (Taraqqiyot)	3	1,3	239,2	1,2	1447,2
	Geologlar (Taraqqiyot)	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
63	Geofizika	3	1,3	239,6	1,2	1447,2
	Geofizika	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
64	Jasorat (Vatanparvar)	3	1,3	239,6	1,2	1447,2
65	Alisherobod	3	1,3	239,6	1,2	1447,2

	Alisherobod	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
66	Zakovat (Bog‘ishamol)	3	1,3	239,6	1,2	1447,2
	Zakovat (Bog‘ishamol)	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
67	Ijodkor (Barkamol)	3	1,3	239,6	1,2	1447,2
	Ijodkor (Barkamol)	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
68	Iqtidor (Do‘stlik)	3	1,3	239,6	1,2	1447,2
	Iqtidor (Do‘stlik)	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
69	Chingeldi	4	1,3	158,6	1,2	1137,6
70	Pastki-yuz	4	1,3	158,6	1,2	1137,6

Xalq deputatlari Mirzo Ulug’bek tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-038-14-200-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Soxalar	Yer osti suv manbalari		Yer usti suv manbalari	
		Koeffit –siyent	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	**Koeffit -siyent**	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,1	935	1,1	770
2	Sanoat korxonalari	1,1	935	1,1	770
3	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	1,1	148.5	1.1	110
4	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,1	110,0	1,1	110,0
5	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	1,0	15 000,0	1,0	15 000,0
6	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	1,1	41 800,0	1,1	41 800,0

Xalq deputatlari Mirzo Ulug’bek tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-038-14-200-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2025-yilda qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Noruda qurilish materiallari nomi	Koeffitsiyent	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun so‘mda)*
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,1	6 776,0
2	Qum-shag‘al aralashmasi *(qum-shag‘alning karerdagi realizatsiya minimal miqdori bir metr kubi uchun **20 ming so‘m**)*	1,1	5 500,0
3	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	1,1	5 082,0
4	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,1	17 545,0
5	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,1	11 000,0
6	Marmar	1,1	22 000,0
7	Granitlar	1,1	33 000,0